



T.C. KÜLTÜR VE TURİZM  
BAKANLIĞI



## ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ТҮРКОЛОГИЯ КОНГРЕСІ

(ҚАЗІРГІ ЗАМАНҒЫ ТҮРКОЛОГИЯ: ФЫЛЫМЫ ПАРАДИГМАЛАРЫ ЖӘНЕ ПӘНАРАЛЫҚ СИПАТЫ)

## МАТЕРИАЛДАРЫНЫҢ ЖИНАҒЫ

17-20 ҚАЗАН 2023  
ТҮРКІСТАН/ҚАЗАҚСТАН

## X. ULUSLARARASI TÜRKOLOJİ KONGRESİ

(MODERN TÜRKOLOJİ: TEMEL PARADİGMALAR VE DISİPLİNLERARASILIK)

## BİLDİRİ KİTABI

17-20 EKİM 2023  
ТҮРКІСТАН/ҚАЗАҚСТАН

TÜRKİYE REPUBLİKASYНЫН 100 ЖЫЛДАРЫNA  
TÜRKİYE CUMHURİYETÝNIN 100. YILI NA

**X. ULUSLARARASI TÜRKOLOJİ KONGRESİ**  
(Modern Türkoloji: Temel Paradigmalar ve Disiplinlerarasılık) / 17-20  
Ekim 2023 Türkistan-KAZAKİSTAN  
**BİLDİRİ KİTABI**

**Халықаралық Туркология конгресі**  
(Қазіргі заманғы түркология: ғылыми парадигмалары және  
пәнаралық сипаты) 17-20 қазан 2023, Түркістан/ҚАЗАҚСТАН  
**МАТЕРИАЛДАРДЫҢ ЖИНАҒЫ**

**EDİTÖRLER / РЕДАКТОРЛАР:**

Prof. Dr. Bülent BAYRAM - док., проф. Бүлент Байрам  
Doç. Dr. Cemalettin YAVUZ - док., доц. Жемалеттин Явуз  
Dr. Madina Moldasheva - док. Мадина Молдашева  
Jupar Tanauova - Жұпар Танауова

**Hoca Ahmet Yesevi Uluslararası Türk-Kazak Üniversitesi  
Yayınları**

Ankara  
2023

ЯСАУИ «ХИКМЕТТЕРИН» КӨРКЕМ МӘТИН РЕТИНДЕ ТАНУ / ф.ғ.д., проф. Ж.А. ЖАҚЫПОВ-----	381
ISLOM VA TURKIY KITOBİY EPOSLAR / Davronbek ORIPOV-----	397
KÖPRÜLÜ AİLESİ VE AİLENİN ŞÂİR ÜYESİ: HÂSIM VE DÎVÂN'I / Prof. Dr. Gencay ZAVOTÇU -----	413
TURKIY TILDAGI HAMD G'AZALLARNING SHAKLLANISHI VA EVOLUTSIYASI XUSUSIDA / Doç. Dr. Karomat MULLAHODJAYEVA-----	435
KARAC'OĞLAN'IN 'ELİF'İ VE ÇUKUROVA BÖLGESİ ÂŞIKLARINDA 'ELİF' ŞİİRLERİ / Fatih KIRAN -----	457
YUNUS EMRE'DE DUYGU METAFORLARI / Dr. Çağla BARIKAN TOPÇU -----	475
ТҮРКИ ФОЛЬКЛОРЫНДАҒЫ ӘЙЕЛ ҚҰДАЙЛАРДЫҢ ТРАНСФОРМАЦИЯСЫ / ф.ғ.к., доц. Ақбота АХМЕТБЕКОВА, ф.ғ.к., доц. Пакизат АУЕСБАЕВА -----	497
«ҚАЗАН» СИМВОЛИКАСЫ: С.ҚОНДЫБАЙ ЗЕРТТЕУЛЕРІНДЕГІ ТАҢЫМДЫҚ-МИФТИК ДЕРЕКТЕР / ф.ғ.к., доц. Гүлжамал КОРТАБАЕВА -----	509
ТҮРАН ЖӘНЕ ИРАН ЖЕРІНДЕГІ ЕЖЕЛГІ НАНЫМ- СЕНІМДЕР / ф.ғ.к., доц. Бақыт ӘБЖЕТ -----	523
ИНТЕРНЕТ ФОЛЬКЛОРДАҒЫ ЖАНРЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯСЫ / ф.ғ.к. Жұмашай РАҚЫШ-----	535
TÜRK DÜNYASINDA TEKNOLOJİ DESTEKLİ DİL ÖĞRETİMİNİN GÜNCEL DURUMU / Dr. Burak SÖZER-----	545
KIRGIZ TÜRKLERİNİN SOSYAL MEDYADAKİ DİL TUTUMLARI / Esra BOZDEMİR -----	561
TÜRKOLOJİ'DE DİJİTALLEŞMEYE ATILAN ADIMLAR: TÜRK EDEBİYATI İSİMLER SÖZLÜĞÜ VE TÜRK EDEBİYATI ESERLERİ SÖZLÜĞÜ PROJELERİ / Emine Sıdika TOPTAŞ-----	575
MİSMİLDİRİK (BEDELDEĞİ KARGIŞ) ROMANI ÖRNEĞİNDE KIRGIZ TÜRKÇESİNDE ESKİCİL VE TARİHİ SÖZ VARLIĞI / Oğuz ALPARSLAN ÇATAL-----	593
YENİSEY YAZITLARINDAN UYBAT III'TE GÖRÜLEN BİLİNMEDİM SÖZÜ / Dr. Ahmet KARAMAN -----	609

# TURKIY TILDAGI HAMD G'AZALLARNING SHAKLLANISHI VA EVOLUTSIYASI XUSUSIDA

## ON THE FORMATION AND EVOLUTION OF PRAISE GHAZALS IN THE TURKIC LANGUAGE

Karomat MULLAHODJAYEVA\*

### ANNOTATSIYA

Turkiy, xususan, o'zbek adabiyotiga ham tashhid va munojot mavzusi va ruhi islom ma'rifati bilan birga kirib keldi, har bir janrning poetik imkoniyatiga muvofiq unga moslashdi.

She'riy janrlar takomillashib borgani sari ushbu mavzu ham janr talablaridan kelib chiqib taraqqiy etdi. Mazkur mavzuning g'azal janridagi evolyutsiyasiga nazar tashlansa, hamd va munojot mavzusining bir g'azalda ifoda topganligi kuzatiladi.

Hamd g'azallarining nisbatan mukammal namunalari Temuriylar davridagi devonlarda – Atoyi, Lutfiy she'riyatida uchraydi.

Hamdlarning eng yuksak namunalari Alisher Navoiy devonlaridan o'rinni olgan. Devon tuzish an'analariga qat'iy riyoja etgan va ularni muayyan mezonlarda tartiblagan shoir "Xazoyin ul-maoniy" dagi har bir devoniga hamd g'azallarni tegishli tartibda joylashtiradi. Shoirming hamd g'azallarini tashhid hamd g'azallar hamda munojot g'azallar deb guruhlash o'rinni. Ba'zan bu ikki mavzuning bir g'azalda uyg'unlashgani ham kuzatiladi.

Hamd g'azallar shoirming diniy-so'fiyyona qarashlarini o'zida mukammal aks ettirgan – islom falsafasi, tasavvuf falsafasi g'oyalarini teran umumlashtirgan san'at asarlaridir. Ushbu turkum g'azallar o'zining alohida g'oyaviy-badiiy xususiyatiga ega. Ular o'z timsol va tashbehlari bilan ajralib turadi. Jumladan, bu turkum she'rlar quyosh, zarra, bahr, mavj, gul, bulbul, parvona, sham', hubob, xuffosh kabi ko'plab timsollarning ramziy xarakter kasb etishiga olib kelgan. Navoiy bu turkum g'azallarni yangiliklar bilan boyitdi, o'z "men'i – dardi ifodasini katta san'at darajasiga ko'tardi. Bu shoirming novatorligidir.

Kalit so'zlar: g'azal, hamd, tashhid, munojot, timsol, badiiyat, evolyutsiya

### ABSTRACT

The theme and spirit of monotheism and prayer entered Turkic, especially Uzbek literature along with the Islamic enlightenment, and adapted to it according to the poetic potential of each genre.

As the poetic genres improved, this theme also developed based on the requirements of the genre. Looking at the evolution of this theme in the ghazal genre, it is observed that the theme of praise and prayer is expressed in one ghazal.

Relatively perfect examples of Hamd ghazals can be found in the divans of the Timurid era - in the poetry of Atoyi and Lutfiy.

The highest examples of praises are found in the divans of Alisher Navoi. The poet, who strictly followed the traditions of creating divans and arranged them

\*Filologaya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent/ O'zbekiston (kmullahodjayeva@gmail.com) <https://orcid.org/0000-0002-9556-3230>

according to certain criteria, placed the praise ghazals in each devan in "Khazayin ul-Maani" in the appropriate order. It is appropriate to group the poet's praise ghazals as monotheistic praise ghazals and prayer ghazals. Sometimes these two themes are combined in one ghazal.

Hamd ghazals are works of art that perfectly reflect the religious and Sufi views of the poet - deeply summarizing the ideas of Islamic philosophy and Sufism. This series of ghazals has its own special ideological and artistic character. It is distinguished by its symbols and allusions. In particular, the sun, particle, sea, wave, flower, nightingale, propeller, candle, bubble, huffosh, and many other symbols have become symbolic. Navoi enriched this series of ghazals with innovations and raised the expression of his "I" - pain to the level of great art. This is one of the signs of his innovative abilities.

**Keywords:** ghazal, praise, monotheism, prayer, symbol, artistry, evolution

## Kirish

Hamd mavzusi har qanday janrga moslasha oladi. Shu jumladan, g'azalga ham. Turkiy adabiyot, xususan, o'zbek adabiyotidagi hamdlar tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bu turkum g'azallar ham muayyan takomil bosqichlaridan o'tdi. Hamd g'azallar taraqqiyoti g'azal janri taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqidir. Dastlab ushbu mavzu shoirlarning oshiqona g'azallari mazmuniga uyg'unlashib ketganligi, ularni ilg'ab olish mushkul kechishi ham kuzatiladi. Devon tuzish an'anasi ushbu turkum g'azallarning mavzu va mazmun jihatidan yanada mukammallahishiga olib keldi. Devonlarning basmalasi – ularning hamd g'azallar bilan boshlanishi zaruratga aylana boshladi. Devonlardagi bunday tartib Alisher Navoiydan oldin mukammal namoyon bo'limgan esa-da, Atoyi, Lutfiy, Gadoyi kabi shoirlar devonlaridagi g'azallar orasida Allohoi madh etuvchi, ayniqsa, tajalliy nazariyasining g'oyalarini badiiy talqin etgan g'azallar mavjud. Ular tasavvufiy qarashlarning obrazlar va ramzlarga singdirilgan badiiy ifodasi – olam, odam va Ollohoi birbutun ko'rish istagini mahsulidir.

Turkiy adabiyotda hamd g'azallar Alisher Navoiy ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi.

Hamd, munojot yo'lida bitilgan g'azallarda shoir Ollohoi madh etadi, ulug'laydi, undan najot so'raydi, o'zining zaifligi, ojizu notavonligini izhor qiladi. Olloho, olam va odam, ularning munosabatlari, tanosubi haqidagi diniy-so'fiyona bilimlar, qarashlar va tasavvurlarning mag'zi aynan shu g'azallarga singdirilgan, zero Navoiy o'zining hamd va na't g'azallarida islom va tasavvufga uyg'un falsafiy qarashlarini umumlashtiradi.

Ayrim tadqiqotlarda ushbu turkum g'azallar orifona g'azallar qatorida o'rganilgan. Jumladan, A.Abduqodirov hamd g'azallarni

orifona g'azallar tarkibida olib qaragan. Bu turkum g'azallarda garchi orifona mazmun ancha ustuvor bo'lsa-da, ularning maqsad-vazifalari orifona g'azallardan farq qiladi. Aynan shu sababli bunday g'azallarni alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

### Mulohaza va natijalar

Bevosita Olloho ni madh etishga bag'ishlangan hamd turkumidagi g'azallar ikki guruhg'a ajratilib, tayhid hamd g'azallari hamda munojot hamd g'azallari nomi bilan yuritiladi. Jumladan, XV asrda yashab ijod etgan adabiyotshunos olim Shayx Ahmad Taroziy "Funun ul-balag'a" asarida shunday yozgan edi: "Agar Tengri azza va jallag'a hamd etsalar, oni tayhid derlar. Va agar Muhammad Mustafo sallolohi alayhi vasalamni vaf qilsalar, na't derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru' qilsalar, munojot o'qurlar" (Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1994).

Hamd va munojotlar mavzui, ifoda usuli va obrazlari bilan bir-biriga juda yaqin. Ularning har birida ilohiy muhabbat betakror mahorat bilan ifodalangan. Buni esa poetik ma'noni ifodalashda obrazlar va badiiy san'atlarning qo'llanilish darajasini tadqiq etish orqali o'rganish mumkin. Hamdlardagi poetik uslubning asosiy komponentlari hisoblangan ma'no, timsol va badiiy san'atlar hamda tasvir vositalarini uyg'unlikda o'rganish shoir dunyoqarashi, ilgari surgan g'oyalari, falsafiy fikr-mulohazalarini anglab yetishda o'ziga xos bir yo'l. Chunki "badiiy san'atlarni tanlab olish va qo'llash, ular qanchalik murakkab va jozibador bo'lmashin, hamisha hech bir istisnosiz baytda aytigli lozim bo'lgan mazmunni munosib darajada ifodalash uchun vosita bo'ladi. Obraz yaratishning o'zi maqsad bo'lomaydi...." (Стеблева, 1982, с. 38).

"Tayhid so'zining lug'aviy ma'nosi – biror-bir narsani vohid aylash. Ilmiy istilohda esa Ollohoning yagonaligiga ishonmoqdir. So'fiylar e'tiqodida tayhid Ollohoning azal va abadda sobit vahdoniyatiga ishonchdir. Olimlar tushunchasida, tayhid – e'tiqodga taalluqli bo'lsa, so'fiylar uchun u maqsad, mushohada va ma'rifat hisoblanadi. Birinchisi bilish va tasdiq etishga asoslansa, ikkinchisi zavqiy idrokka suyanadi" (Алишер Навоий, 2001, с. 506). Shuningdek, tayhidning tayhidi af'ol, ya'ni har qanday sifatni Olloho dan deb va ularni hol nazari bilan ko'rib, kamolga yetkazish; tayhidi sifot – har qanday sifatni Xudadan deb anglash va uni mukammallashtirish; tayhidi zot, ya'ni borliqdagi hamma narsani faqat Olloho vujudining natijasi deb bilish kabi darajalar mavjudligi ham ta'kidlangan. Vaf, madh ruhida bitilgan bu turkum g'azallarni "tayhid" istilohi vositasida ifodalash, asosan,

vohidlik, ya'ni yakka-yu yagonalik Ollohnning eng muhim sifatlaridan biri ekanligiga borib tutashadi.

Tajalli nazariyasi g'oyalarini, ya'ni mavjud olam, undagi ashylarning jami Haqning zuhuri, degan qarashni o'zida mujassamlashtirgan, badiiy talqin etlgan g'azalga murojaat qilamiz:

*Zih husnunz zuhuridin tushib har kimga bir savdo,*

*Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o.*

Baytning ma'nosini ochishda muhim bo'lgan *savdo* mafhumi tasavvuf lug'atlarida ilohiy jazba, ilohiy ishq degan ma'nolarni anglatadi, deyilgan.

Dunyo, undagi mavjud narsalar Ollohnning zuhuri, uning ko'zgudagi aksi, deb tushuntiriladi tasavvuf falsafasida. Demak, baytga binoan, shu dunyoda yashayotgan kishilarning boshiga ana shu zuhurotning o'ziga – mosivollohga berilish oqibatida shunday tashvishlar tushganki, uning javobini beradigan qiyomat kuni kavnayn bozori – mahshargohda g'avg'o-to'polonlar ko'tariladi. Qur'oni Karimda Qiyomat kunining tasviri berilgan oyatlar juda ko'p uchraydi, jumladan: "Bu kunda har bir jon o'zi qilgan ish-amali bilan jazolanur" (Куръони карим, 40:17). Zohirbinlik, dunyo hoyu havaslariga berilish oqibatida amalga oshirilgan ishlar *savdo* mafhumining ana shu mazmuni orqali ifodalanayotgandek. Biroq tasavvuf adabiyotida *savdoning* tutgan o'rniga e'tibor bersak, mosivollohga emas, balki Ollohga bo'lgan ishqning savdosи haqida so'z ketayotganini anglaymiz. Baytdan shu narsa ayon bo'ladiki, ilohiy ishq iztiroblari bilan bu dunyoda yonayotganlar u dunyoda (Qiyomat kunida) ham shu istak bilan kuyib-o'rtanadilar. Ushbu baytda, va umuman shoirning hamd g'azallarida falsafiy-so'fiyona va diniy fikr-qarashlarning uyg'unlashib ketganini ochiq ko'rish mumkin. Shuningdek, baytda bir necha – *tajnis* (avvalgi misrada savdo-tashvish, keyingisida oldi-sotdi ma'nosida), *tyhom* (savdo), *tanosub* (bozor manzarasining ifodalanishi), *takrir* kabi badiiy san'atlar qo'llanilganki, ular orqali shoir-oshiqning ahvoli va uning mamduhi haqida tasavvur hosil qilish mumkin (ramziylik ham savdo tushunchasiga yuklangan). Ko'rinish turibdiki, "g'azallarda obraz yaratish uchun shoir foydalangan badiiy tasvir vositalarining barchasini e'tiborga olmay turib, ularning murakkab tarzda birikishidan hosil bo'lgan fakturasini (o'ziga xos xususiyatlarini) vujudga keltirgan ma'nolar aloqadorligi va ularning tovlanish rishtalarining barchasini ajratib olish mumkin emas" (Стеблева, 1982, s. 4).

Qur'oni Karimning "Fotiha" surasidagi: "Hamd-u sano butun olamlar xojasi, mehribon va rahmli, jazo (qiyomat) kunining egasi podshohi bo'lmish Ollohh uchundir" (Куръони карим, 1:14), degan oyatlarni eslasak, shoir hamdlarida aytilgan fikrlarning nechog'li o'rini va haqli ekanligi anglashiladi.

Chindan, hamd g'azallarida Ollohhga hamd-u sanolar aytish, u zotni ulug'lash, yuzlab sifatlarini badiiy bo'yoolarda ifodalash muhim o'rinni egallaydi. Bu jihatdan hamd g'azallardagi ko'pgina baytlar Qur'oni Karim oyatlariiga hamohang, jumladan:

*Seni topmoq base mushkuldurur, topmaslig' osonkim,*

*Erur paydolig'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo.*

Shoирning "Munojot" asarida shunday satrlar bor: «Har negaki tashbih qililsa o'xshamassen, yaxshi boqilsa ul sendurur va sen ul emassen...». Bu fikrlar Qur'oni Karimning "Qof" surasidagi: "Biz unga (insonga – K.M.) jon tomiridan ham yaqinroqmiz" (Куръони карим, 50:16), degan oyatni yodga soladi.

Diniy va so'fiyona fikr-qarashlar ifodalangan ushbu baytda Mahbubning sifatlarini tavsiflar ekan, shoир mahbub va oshiq timsollarini yoritish uchun bir xil san'atlar – *tazod* va *takrirni* (*takrir tardi aks* ko'rinishida kelgan) qo'llab baytga joziba beradi. Mahbubga nisbatan *pinhon-paydo* qarama-qarshi tushunchalar juftligi, oshiqqa nisbatan *topmoq* va *topmaslik*, *mushkul-oson* kabi mafhumlarning *tazodi* va bu juftliklar *takrori* mohiyatni ochib berish uchun xizmat qiladi. Hamdlarda Mahbub – Haq timsolini tavsiflashda *tazod* san'ati keng qo'llaniganini kuzatish va buni Haq sifatlariga muvofiq ifodalar, deb tushunish ham mumkin. Diniy-so'fiyona nuqtayi nazardan anglangan dunyoni badiiy asarda ifodalash shoирga ancha keng imkoniyatlar beradi. Dunyoning yaratilishini diniy nuqtayi nazardan idrok etgan shoир Ollohnинг qudrati oldida lol qolsa, so'fiyona qarashlar, ayniqsa, tajalliy nazariyasiga asoslanib fikr yuritayotgan chog'da har bir narsada – gul-u maysada, bud-u nobudda Haqning jilvasini – go'zalligini ko'rib hayratlanadi. Borliqda mavjud o'zi istagan har bir narsani timsol yoxud tashbeh sifatida qo'llay oladi. Haqni anglab borar ekan, borliqni, inson va uning umri – bularning o'tkinchiligi, umrning bebaqoligi singari masalalarni yanada chuqurroq his qila boshlaydi, tashbeh-u timsollarini, istioralarini ana shular bilan bog'laydi.

Hamd g'azallar Ollohhga hamd-u sanolar bitilgan, ilohiy muhabbat kuylangan g'azallardir. Bu muhabbat, bir tomonidan, shoирning diniy

qarashlari bilan chambarchas bog'lanagan bo'lsa, ikkinchi tomondan tasavvuf falsafasi bilan uyg'unlashib ketgan. Aniqrog'i, bu turkum g'azallarda din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlari o'z ifodasini topgan. Shoir hamd-u sanolar aytish, najot so'rash vositasida inson, uning insonlik mohiyati haqidagi fikrlarini ifodalashga muvaffaq bo'ladi. Zero, bu olamning yaratilishidan maqsad odam, odamdan maqsad esa komil inson ekanligi ko'p bor, jumladan, shoirning o'z asarlarida ham e'tirof etilgan:

*Ey, nechukkim, durni maxfiy asrabon Ummon aro,*

*Gavhari ishqini pinhon asrag'an inson aro.*

*Chunki insonni bu gavhar birla aylab bahramand,*

*Sarfarozi aylab maloyik xayli birlajon aro.*

Shunday ekan, ilohiy muhabbat, ya'ni insonning Ollohg'a muhabbatni asosida ham insonning o'ta nozik va murakkab his-tuyg'ulari mujassam. Navoiy bu turkum g'azallarda inson ruhiy olamini o'ziga xos bir yo'l bilan – diniy-so'fiyona bilimlar asosida kashf etishga kirishadi.

Ilohiy muhabbat bilan yo'g'rilgan hamd, munojot g'azallarni tasavvuf falsafasiga bog'lab o'rganish ularning mohiyatini teranroq anglashga, g'azallarni to'g'ri tushunishga imkon yaratadi. Ushbu turkum g'azallarda so'fiyona qarashlarning badiiy ifodasi haqida ilm ahli tomonidan ham ba'zi mulohazalar bildirilgan. Jumladan, navoiyshunos S.G'anieva hamda H.Ne'matov "Badoe' ul-bidoya" devoniadi 2-g'azalning ("Zihi husnung zuhuridin tushib har kimga bir savdo..." deb boshlanuvchi) baytlarini tasavvufning yetti maqomi (talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tawhid, hayrat, faqr, fano) bilan uyg'unlashtirib tushuntiradilar. Boshqa bir o'rinda ushbu g'azal "Lison ut-tayr»dagi yetti vodiylar bilan bog'liq epik tasvirlarning eng kichraygan, siqiq, falsafiy ramziy tarhidek", deb baholangan.

"Tasavvufda bandaning Ilohg'a muhabbatini bilan birga, Ilohnинг o'z bandalariga muhabbatni ham e'tiborga olinadi, – deb yozadi prof. N. Komilov. – Aslani olganda, olam, uning ashyolari, tirik mavjudotlar, inson – hamma-hammasi Mutlaq ruhning muhabbatni tufayli vujudga kelgan. ... Tasavvufiy muhabbat ikkiyoqlamadir, bir tomonidan, o'z yaratuvchisiga muhabbat, ikkinchi tarafdan, Tangrining bandasiga marhamati, xayr-u ehsoni..." (Комилов, 1996, с. 39).

Vahdat ul-vujud falsafiy ta'limotining asoschisi Ibn Arabiy fikricha, koinot ilohiy sevgi va zotiy ishqning zarurati sifatida shaxsi aniq

borliqlar holida zot jihatdan yagona borliq bo'lgan Ollohnning tajallisidan boshqa narsa emas (Typap, 1999, s. 48).

Muqaddas hadislardan esa "Yashirin xazina edim, meni bilib tanishlarini istadim, maxluqotni yaratdimki, meni tanib bilsinlar", degan fikrning guvohi bo'lamiz (Typap, 1999, s. 39).

Hamd g'azallar Ollohn ni ulug'lash, unga hamdu sanolar aytish uchungina bitilgan baytlar emas. Balki u mangulik qarshisida ojiz turgan insonning umrni, hayotni – ularning mohiyatini anglash istagida yangilanayotgan ruhining talpinishlari, izlanishlari va evrilishlari hamdir. Axir ilohiyotni bilishga, anglashga intilayotgan inson, avvalo, o'zini taftish eta boshlaydi, o'z qalbini, ruhiy olamini o'rganib, tanib boradi. Bunday intilishning zarur shartini esa shoir bir g'azali xulosasida shunday ifodalab beradi:

*O'zdin qutul, Navoyiyu maqsadg'a yetki, qush  
Yetmas chamang'a, bo'lsa qafas ichra mubtalo.*

Demak, shoir ta'kidlayotganidek, maqsadga yetish – Ollohu muhabbatiga, vasliga tuyup, bo'lish uchun o'zlikdan – nafs qutqularidan xalos bo'lib borish lozim. Mashhur so'fiy Hasan Basriy: "Kimki o'z Rabbini tanisa, uni sevadi, kimki dunyoni tanisa, undan voz kechadi" (Суфизм в контексте мусульманской культуры, 1989, s. 169) – deb aytgan edi. Ollohn ni tanib borgan bandaning ko'nglida unga muhabbat ortib boradi, uning boqiyligidan o'lmaslikka, yashashga tashna ruhiga yupanch tuyadi, bu dunyoning mohiyatan foniyligi – o'tkinchilagini anglab, unga e'tibori susayadi. Bu kabi baytlarda endi lirik qahramon obraz – shoir "men"i yanada aniq ko'rina boshlaydi. Shularni nazarda tutgan shoir hamd g'azallarda Ollohn ni madh etib, ulug'lab, ta'rif-tavsif qilar ekan, uning azaliy va abadiyligini, dunyodagi jamiki narsalardan, tiriklikdan-da ustunligini, qudrati, lutfi, mehri, qahri, jabri kabi sifatlarini olam deb atalmish makondagi jilvasi vositasida badiiy ifodalashga tuyup, bo'lib lozim. Buning natijasida hamd g'azallarining o'ziga xos obraz-timsollar, ramzlar va badiiy tasvir vositalari, xullas, o'ziga xos uslubiy-badiiy xususiyatlari vujudga kelgan.

*Quyosh, zarra, gul, bulbul, sham', parvona, dengiz (bahr), mayj,  
gatra, hubob kabi badiiy-ramziy timsollar hamda husn, zot, sifot, zuhur,  
azal va abad, baqo va fano, bud va nobud, makon va zamон, mir'ot kabi  
diniy-so'fiyona timsol va tushunchalar shoir ijodiy niyatini ifodalashda  
muhim vositalar hisoblanadi. Ularni g'azaldagi vazifasiga ko'ra  
turkumlash ham mumkin. Bu timsol va tushunchalarning asosiy qismi*

ko'p o'rirlarda qarama-qarshi yoki o'xhash tushunchalar juftligi (ilohiy manba va zuhurotni ifodalovchilar) sifatida qo'llaniladi, mohiyat va hodisani, juz' va kullni anglab yetish imkonini beradi.

Hamd g'azallarda so'fiyona ma'no-mazmun kasb etgan timsol va tushunchalar anchagina.

Hamd g'azallarning ham asosiy timsollari mahbub va uning oshig'i. Oshiq o'z mahbubi – Olloh yo'lidagi adoqsiz ishq egasi. U o'z mahbubini qanchalik sevs, mahbubi ham uni shu qadar sevishiga ishonadi. Zero, "Olloh zikri – Olloh muhabbatining alomatidir", degan qudsiy hadis bor. Chindan, Ollohn Navoiydek zikr etishni, uni madh etib bunday g'azallar bitishni Uning muhabbatiga sazovor bo'lgan insongina uddalay olishi mumkin. Shoir tavhid hamd g'azallarda Olloh go'zalligiga, munojotlarda esa uning rahmliligi, kechirimiligi kabi sifatlariga asosiy e'tiborni qaratadi, undan umidvor bo'ladi. Jumladan:

*Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,  
Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur go'yo.*

Mahbub – Olloh hamdini bitgan oshiq-shoir o'z so'zlaridan qanoatlanmay, o'zini bu sohada ojiz-u notavon bilib, *tazod* va *tashbeh* san'atlari yordamida fikrini ifodalaydi. Oshiq o'zini hech qachon jannat gulini ko'rmagan (ko'rishi ham gumon), shuning uchun ham uni vasf eta olmaydigan (gunglik – bexabarlik, ojizlikka ishora), bu dunyoda ham u qadar qadri yo'q tikanga tenglashtirar ekan, mahbubini o'ziga qarama-qarshi o'laroq, *jannat guliga* qiyoslaydi. G'azalning avvalgi baytlarida juda go'zal madhlar bitilgan bo'lib, ushbu – so'nggi baytdagi fikr shoir-oshiqning hech narsaga arzimasligini anglatmaydi, balki uning mahbubi har qanday hamd-u sanodan baland. Shunday bo'lsa-da, uning hamdini aytishdan to'xtashni istamagan shoir keyingi g'azal maqta'sini shunday yakunlaydi:

*Ushshoq aro, yo rabki, Navoiyga maqome  
Bergilki, sening hamdinga bo'lsun tili go'yo.*

Ya'ni: "Ey Olloh, oshiqlaring ichida Navoiyga shunday bir maqom bergilki, sening hamdingni aytishda uning tili go'yo bo'lsin". Ushbu baytda *insho* lafziy san'atining *nido* (yo rabki, ...) hamda *amr va nahiy* (bergilki,) usullarini qo'llagan shoir qahramonning ruhiy holati yanada aniqroq namoyon bo'lishiga imkon beradi. Munojot hamdlarda oshiq-shoir yaratuvchiga bevosita murojaat qiladi. Bu esa ko'pincha ifoda usullarini anglatuvchi *insho* san'atining *nido* hamda *amr va nahiy* kabi shakllarini qo'llashni taqozo etadi.

Hamd g'azallari qahramoni – oshiqning ahvoli quyidagi baytda juda go'zal ifodasini topgan:

*Bordur Navoiy bekase, ishq ichra andoqkim xase,  
Chun o'rtading ani, base, kuydurma do'zaxda yano.*

Mahbub ishqida o'rtangan oshiq bu ishq dastida yolg'iz va xasdek qovjirab qolganini anglatar ekan, ishq dastida kuygan bu jonne do'zaxda yana kuydirmaslikni so'raydi. Bu bilan ishq olovı do'zax olovidan ham kuchliroq ekanligiga ishora qiladi. O'z fikrlarini mahorat bilan ifodalash uchun shoir ***musajja'*** (birinchi misradagi *bekase* va *xase* hamda ikkinchi misradagi *base* so'zlarining qofiyalanib kelishi), ***mubolag'a*** (oshiqning xasga qiyoslanishi), ***insho*** san'atining *anr* va *nahiy* usulini (kuydurma...) qo'llaydi.

Bu turkum g'azallarda tasvirlanayotgan oshiqni soliklikning mohiyatini anglagan, o'zini shu maqomda ko'ra olish darajasiga ko'tarilgan, deb aytish ham mumkin. Chunki uning dardlari, bu dunyoning mohiyatini, Ollohoi anglash va bularni ifodalab berish darajasi shundan dalolat beradi. Bir g'azalda shoir shunday yozadi:

*Ey Navoiy, solik ersang haq vujudin bil vujud,  
Mosivollohni adam, vallohu a'lam bis-savob.*

Demak, solikning niyati – o'z vujudini Haq vujudida ko'rish, unga singib ketish, u bilan qovushish. Haqdan o'zga narsalarning barchasi (mosivolloh) solik uchun yo'qlik bilan barobar. Shoir so'fiyona qarashlarini ifodalayotgan ushbu bayt hamd g'azallaridan ko'zlangan maqsadni oydinlashtiradi. Mana shunday ulug' niyat bilan, otashin muhabbat bilan, oshiq-shoir o'z mahbubi Ollohoi madh etib, so'fiyona qarashlarini badiiy mukammallik darajasiga olib chiqadi.

Hamd g'azallar ham shoirning boshqa turkum g'azallari singari badiiy mukammal bo'lib, ko'plab she'riy san'atlar, jumladan, ***kitobot***, ***ishtiyoq***, ***talmeh*** va boshqalar asosiga qurilgan. Masalan:

*Malohat birla tuzdung sarvgadlar qomatin, ya'ni  
Ki mundoq zeb birla ul alifni aylading zebo.*

"Zeb" yaratuvchiga, "zebo" esa yaratilmishga tegishli sifat. Bu sifatlar ***ishtiyoq*** san'ati ko'magida muvofiglashtirilgan. Ayni paytda "zeb"ga alifning qo'shilishini (*alif* go'zal qomat, zeboning sifati ma'nosida keladi) shoir ***kitobot*** san'ati asosida izohlaydi.